
Aliment ishlarida oilalarning yarashtirilishi muhim jarayon!

Byuroning Farg'ona shahar bo'limi tomonidan 2022 yil noyabr oyining uchinchi haftasi "Aliment qarzdorligini kamaytirish va voyaga yetmagan farzandlar huquqini mustahkamlash haftaligi" deb e'lon qilindi.

Tabdir davomida otalik majburiyatini bajarmay, bo'yin tovlab kelayotgan 4 nafar 45.0 mln. so'm qarzi mavjud bo'lgan qarzdorlar sudning qarorlariga asosan ma'muriy qamoq bilan jazolandi.

Alimentdan bo'lgan 16 nafar qarzdorlardan 69,0 mln. so'mdan ortiq aliment pullarini undirib berildi. Quvonarlisi shundaki, mahalla nuroniylari bilan birgalikda kelisholmay yurgan oilalarni tiklash, farzandlarni o'z ota-onasi bag'rida ma'naviy va moddiy tomondan yetuk bo'lib o'sishi uchun olib borilgan targ'ibot va tushuntirishlar natijasida 35 nafardan ziyod qarzdorlar o'z oilasini tiklanishida faollik ko'rsatdi hamda 47 nafar farzandlarni ota ona bag'riga qaytarilishiga erishildi.

Mazkur tabdirlar har bir mahallada davom etmoqda.
MIB Farg'ona shahar bo'limi.

2022-11-21 20:28:40